

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

TURIZM VA SERVIS KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.48:6.01(575.1)

AXMEDOV MEHRIDDIN NURALI O‘G‘LINING

TURIZM RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING TA’SIRI

**71010401 – “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)”
mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S T I Y A


Ilmiy rahbar: i.f.d.,prof. A. Norchayev


Toshkent-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi : "Turizm va servis" kafedrasida dastlabki
himoyadan o'tgan.

5-sonli bayonnoma "24" 04 2023 y.

Kafedra mudiri: I.A. Axmedov  03.08.23
imzo sana

Ilmiy rahbar: A.N. Norchayev  03.08.23
imzo sana

Talaba: M.A. Nurali o'g'li  03.08.23
imzo sana

Dissertatsiya mavzusi Magistratura bo'limida 2021 yil "20" dekabr

№ 808 T. raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda turizmga iqtisodiyotning muhim va ajralmas bo'lagi sifatida qarash yanada kuchaygan. Turizm, umuman xizmatlar sohasi potensial jihatdan sanoat va qishloq xo'jaligidan ancha ustun. Buni rivojlangan davlatlar YalMini ko'rib ham anglash mumkin. Bunda turizmdan to'g'ri foydalanish, uning uchun yetarli shart-sharoitga ega bo'lgan infratuzilmani yaratish va zamon talabiga mos innovatsion qarashlarni hamda texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq. O'z navbatida sohadagi muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida o'rganish va ularni innovatsion yo'llar bilan hal qilish tizim rivojiga sabab bo'lishi va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashi turgan gap. Shu jihatdan ham mavzuning dolzarb ekanligini hisobga olgan holda, ushbu mavzuda tadqiqot va tahlillarni olib bordik.

Mavzuning maqsad va vazifalarini yoritib berish asnosida mahalliy va xorijiy manbaalardan, ilmiy tadqiqotlardan keng foydalandik. Ushbu tadqiqotda tizimli va kompleks yondashuv, statistik va ilmiy tahlil, induktiv yondashuvlar hamda analiz va sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalandik.

Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati keng bo'lib mamlakatimiz turizmida innovatsiyalarning ta'siri bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: turizm, innovatsiya, yangilik, investitsiya, innovatsion menejment, texnologiya, turist.

ANNOTATION

Today, the view of tourism as an important and integral part of the economy of our country has increased. Tourism, in general, the service sector is potentially much higher than industry and agriculture. This can be understood by looking at the GDP of developed countries. In this case, it is advisable to use tourism correctly, create an infrastructure with sufficient conditions for it, apply innovative ideas and technologies that meet the needs of the time. In turn, the timely study of problems and shortcomings in the field and their solution in innovative ways will lead to the development of the system and the improvement of economic indicators. Taking into account the relevance of the topic in this regard, we conducted research and analysis on this topic.

In the process of clarifying the goals and objectives of the subject, we widely used local and foreign sources, scientific research. In this study, we used such research methods as a systematic and integrated approach, statistical and scientific analysis, inductive approach, analysis and synthesis.

Due to the wide scientific and practical significance of the topic, we have developed scientifically based proposals and recommendations on the impact of innovations on tourism in our country.

Key words: tourism, innovation, novelty, investment, innovative management, technology, tourist.

MUNDARIJA

Annotasiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar.....	6
KIRISH	7
Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	7
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	8
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	8
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	9
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	9
Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	10
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	12
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	12
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	15
1.3. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi.....	17
II BOB. METODOLOGIYA	18
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	18
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	18
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	18
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	19
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	20
3.1. Innovatsiya tushunchasi, vazifasi, hozirgi davrdagi o'rni.....	20
3.2. Turizm sohasi rivojlanishiga innovatsiyalarning ta'siri tahlili.....	34
3.3. Raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsion bormlash tizimlarining o'rni.....	38
3.4. Turizmni rivojlantirishda mobil innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llari.....	45
3.3. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	65
XULOSA	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	70
ILOVALAR	74

KIRISH

Dissertastiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Bugungi kunda har bir soha kabi turizm sohasi ham innovatsion qarashlar va texnologiyalarga muhtoj. Iqtisodiyotning muhim sektori sifatida qaralayotgan soha bo'yicha yurtimiz oldiga qo'ygan maqsadlari ancha kata. Bu borada tizimli ishlarni olib borish, infratuzilmani yaxshilash, yangi turistik zonalar tashkil etish, mavjud turistik maskanlardagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish lozim. Umuman soha rivojida keying yillarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan yanada muhim va strategik qarorlar mavjud bo'lib, keyingi muammolarda innovatsion qarashlar va texnologiyalardan foydalanish o'rinli bo'ladi. Bu xizmat ko'rsatish va turizmning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rnini yaxshilashda muhim qadam bo'lib xizmar qiladi.

So'nggi yillardagi innovatsion muhit nafaqat rivojlangan davlatlarda balki Markaziy Osiyo mintaqasida ham yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Turli xil platformalar, online sayohatlar, turist uchun bir-biridan qulay gadjet va dasturlar so'zimiz isboti. Turist uchun uning eng qimmatli bo'lgan boyligi uning vaqtini yo'qotmasligi uchun ishlab chiqarilgan va bugungi kunda ommaviy ravishda foydalanilib kelayotgan bronlash tizimlari, gastronomic dasturlar ham shular jumlasidandir. Bunday innovatsion texnologiyalar turistlar uchun qulaylik jihatidan ancha muhim va kerakli moslamadir. Umuman innovatsiyalar nafaqat turistlarning, balki, kundalik hayotdagi istalgan insonning ehtiyojlarini tez, oson va eng asosiysi ishonchli ravishda qondirib kelmoqda. Shu tufayli innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalardagi ta'sirini o'rganish menimcha ancha muhim. Eng avvalo innovatsiyalarning sohadagi ta'sirini bevosita hamda bilvosita ta'sir doiralari asnosida ko'rib chiqish lozim. Bunda regional, mintaqaviy va tarmoqlararo ta'sirni o'rganish imkoni ham paydo bo'ladi. Shu bilan birgalikda innovatsiyalarning investitsion muhitni qanchalik yaxshilashi yoki iqtisodiy "aktiv" holatga keltirishi mumkinligini ham o'rganish muhim. Innovatsiyalarning iqtisodiy jarayonlarga